
“Nafosat” mahallasining ham ichki yo‘llari asfalt qilinmoqda

Ayni kunlarda Farg‘ona shahridagi mahalla fuqarolar yig‘inlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi “2022-2023-yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

Qaror asosida Farg‘ona shahridagi 61 ta loyihalar uchun respublika byudjetidan qariyb 100 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan.

Xususan, “Nafosat” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi ichki yo‘llarning 4 kilometr qismi asfalt qilinishi belgilangan. Hozirda ichki yo‘llarni asfaltlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlar uchun respublika byudjetidan 1 mlrd. so‘mdan ziyod mablag‘ ajratilgan.

2023-04-12 12:15:32